

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING 2016-2023-YILLAR DAVOMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Kucharov Murod Baxtiyorovich

"MY INSURANCE" AJ ST Bosh direktori

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 7

DOI:https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss7/a4

KEYWORDS

Ushbu maqolada O'zbekiston sug'urta bozorining 2016-2023-yillar davomidagi asosiy rivojlanish tendensiylari, ushbu davr oraliq ida mazkur sug'urta bozorida erishilgan yutuqlar va mavjud kamchiliklar ko'rsatib berilgan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va taviyalar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston sug'urta bozori, yalpi ichki mahsulot (YAIM), hayot sug'urtasi tarmog'i, umummiy sug'urta tarmog'i, majburiy sug'urta turlari.

ABSTRACT

Kirish (Introduction/Введение).

2016-yilning so'ngi choragidan buyon mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-jitimoiy yo'nalishdagi tadbirlar natijasi o'laroq mamlakat iqtisodiyotida kata o'zgarishlar yuz berdi. Mamlakatimizda olib borilayotgan jadal va keng ko'lamli islohotlar yurtimizda yangi davrni – yangi O'zbekistonni qurish davrini boshlab berdi. Bugun yurtimizda tarixan qisqa davr ichida butunlay yangicha siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy muhit shakllandi, iqtisodiyotda sezilarli o'sish yuz berib, mamlakatning rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkich hisoblangan YAIM hajmi 2016-yildagi 67.22 mlrd dollardan 2023-yil yakuniga kelib 90,8 mlrd. dollarga etib, 7 yilda 35 foiz o'sishga erishildi [1]. Alohiда ta'kidlash kerak, dunyo miqyosida 2019-yildan 2022-yilga qadar "Covid19" pandemiyasining keng tarqalishi mamlakatlar iqtisodiyotiga o'zining katta salbiy ta'sirini o'tkazdi va buning natijasida aksariyat mamlakatlar iqtisodiyoti sezilarli darajada zaiflashdi. Biroq, mamlakat prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan olib borilgan oqilona siyosat, zarur chora-tadbirlarning o'z vaqtida ko'rishi, shuningdek, uzoqni ko'ra bilish qobiliyati O'zbekistonni bunday og'ir sinov davrlarida iqtisodiy barqarorlikni yo'qotmagan holda olib chiqish imkonini berdi. O'z o'mida O'zbekiston sug'urta bozori ham 2021 yilning o'zidayoq o'zini tiklab, 2020 yilga nisbatan 168 % o'sishga erishdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review, Анализ литературы).


Sug'urta sohasidagi taniqli olim, iqtisodiyot fanlari doktori X.M.Shennaev bo'lib o'rgan pandemiya sharoiti davridagi holatdan kelib chiqqan holda ta'kidlaydiki, amalga oshirilgan tadqiqotlar, aksariyat mamlakatlarda sug'ortalovchilar bir tomonidan va ularning mijozlari bo'lgan sug'ortalanuvchilar ikkinchi tomondan, cheklolvar va iqtisodiy sustlik sharoitida o'zaro kommunikatsiyalarni yo'lga qo'yish, biznesni to'g'ri tashkil etishga unchalik taylor emasligini ko'rsatdi[2]. Daniel S.Glaser sug'ortalovchilar coronavirus pandemiyasi tufayli ko'rilmagan zaararlarni qoplash uchun milliardlab dollar miqdorida sug'urta to'lovlarini amalga oshiradi. Biroq, bu bilan sug'urta sektorining pandemiyaga javob choralarli tugamaydi degan fikrni bergan[3]. 2022-2026 yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va shundan kelib chiqqan holda, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlanish orqali xalqparvar davlat barpo etishga qaratilgan yuzta maqsad belgilandi[4]. L.Toshnazarova tomonidan chop etilgan "O'zbekiston sug'urta bozorida raqobatni

rivojlantrish yo'llari" nomli maqolada O'zbekiston milliy sug'urta bozoridagi raqobat darajasi, uning darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar tahlil qilining holda, bozorda sog'gom raqobatni ta'minlashga qaratilgan taklif va taviyalar ishlab chiqilgan [5]. A.T.Umirov tomonidan chop etilgan "O'zbekistonda raqobat muhitining joriy holati va uning tahlili" ga bag'ishlangan maqolada O'zbekiston milliy sug'urta bozoridagi raqobat muhiti va uning joriy holati hamda tahlili amalga oshirilgan. Amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda, sug'urta bozorida to'planayotgan sug'urta mukofotlari va sug'urta qoplamlari hajmi ortib borayotganligi, ammo shu bilan birga sug'urta bozorida raqobat muhiti etarli darajada emasligi ta'kidlangan [6]. T.Q.Arobiddin tomonidan chop etilan "O'zbekistonda sug'urta bozorini isloh qilish va uni jadal rivojlantrishni ta'minlash masalalari" nomli maqolasida O'zbekiston milliy sug'urta bozori katta potensial imkoniyatlarga ega ekanligi va bu imkoniyatlardan samarali foydalanishga erishish uchun tizimli va keskin islohotlarni amalga oshirish zarurligi ta'kidlangan[7]. Iqtisodiy fanlari doktori, professor Q.M.Qo'ldoshevning fikriga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta tashkilotlari faoliyatini rivojlantrishga, istiqbolda xalqaro sug'urta bozorlarida mustahkam o'rin egallashiga erishish yo'lida davlatning tashabbuskorligida ijobji ishlar amalga oshirilmoqda. Respublika iqtisodiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarida bugungi kunda yuz berayotgan ijobji o'zgarishlar iqtisodiyot moliya tizimining tarkibiy qismi hisoblangan sug'urta sohasining roli oshib borishi uchun ob'ektiv shart-sharoitlarni yaratmoqda[8].

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования).

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты).
Moliya sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan sug'urta bozorida ham yirik islohatlar amalga oshirildi, jumladan, sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichi hisoblangan sug'urta mukofotlar hajmi 2016-2023-yillar orasida qariyb 12 barobarga oshdi. Mamlakatimiz jahon sug'urta bozorida ham o'z o'rniga ega bo'lish uchun choralarini ko'rmoqda. "Axco global statistic" ma'lumotlariga ko'ra, 2020 - yilda milliy sug'urta bozorimiz jahonda 67- o'rinda, markaziy osiyoda Qozog'istonidan keyin ikkinchi o'rinda ekanligini ko'rishimiz mumkin.



1-Rasm. O'zbekiston sug'urta bozorining 2016-2022 yillar oralig'idagi sug'urta mukofoti ko'rsatkichlari.

Manba: Axco global statistic

E'tiborlisi, sug'urta bozorining xalqaro darajada rivojlanishi uchun 2022-yilda Turk dunyosi sug'urta ittifoqining tashkil etilishi sug'urta faoliyatida turkiy tilli davlatlar hamkorligining rivojlanishi va bu turkey tilli davlatlar sug'urta bozorlarining xalqaro bozorlarga chiqishi uchun imkoniyat yaratdi.

2016-2023 yillar davomida mamlakatimizda umumiy sug'urta tarmog'i nisbatan tez rivojlanib, bozorda raqobat muhitini ham yildan-yilga kuchayib bordi. Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlari soni 2016 yildagi 23 tadan 2023 yilda 35 taga yetdi. Biroq, sug'urta bozorida mukofotlarning sug'urta kompaniyalari o'rtaida taqsimotida katta farqlarning mavjudligi saqlanib qolmoqda, ya'ni 2023 yilning uchunchi choragida umumiy sug'urta tarmog'ida 35 ta sug'urta tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lib, ushbu tashkilotlar tomonidan to'plangan jami sug'urta mukofotlari 3 864 301 mln so'mni tashkil qilgan va ushbu mablag'larning 50 foizdan ortig'i 4 ta sug'urta tashkiloti – "Apex Insurance" AJ, "Uzbekinvest" EISK AJ, "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ, "MY INSURANCE" AJ hissasiga to'g'ri kelgan.

Umuman, mamlakatimiz sug'urta bozorining jadal rivojlanib borayotganligini quyida keltirilgan diagrammadan (1-rasm) ko'rish mumkin. Demak tahlil qilinayotgan davrda umumiy sug'urta tarmog'ida korsatilayotgan sug'urta xizmatlari yuqorida jadida o'sib brogan va jami xizmatlarning asosiy qismi ushbu sug'urta tarmog'ida hissasiga to'g'ri kelgan. Hayot sug'urtasi ham so'ngi yillarda sezilarli o'sishga erishdi, ammo soliq bo'yicha amal qilgan imtiyozning 2023 yilning 1 apreldidan e'tiboran bekor qilinishi natijasida mazkur yilda hayot sug'urrtasi keskin kamayib ketdi.

Sug'urta bozorining kengayishi va rivojlanishi sug'urta kompaniyalari tomonidan chuqur marketingni amalga oshirish asosida sug'urta lanuvchilar talabiga mos yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqilishiga bog'liqidir. Albatta bunda davlatning qo'llab-quvvatlashi ham muhim o'rinni tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi sug'urta mahsulotlari qamrovini oshirish, milliy bozorda yangi sug'urta xizmatlarini yaratish kabi masalalarni ko'zda tutuvchi qarorining qabul qilinishi[9] va ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida 2022-yil 9-iyunda Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi[10]. Unda sug'urta faoliyatni klassifikatorini kengaytirish va shu orqali hayot sug'urtasi sohasi va shaxsiy sug'urta bozorida sug'urta xizmatlari turlarini kengaytirish, aholi va iqtisodiyotning ehtiyojlariga xizmat qiladigan yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlashi ko'zda tutuvchi talablar belgilandi.


Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldag'i 80-soni qarori bilan tasdiqlangan "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi yagona nizomning 6-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan Sug'urta faoliyati klassifikatoriga qo'shimcha sug'urta klasslarini kiritish orqali kengaytirildi. Jumladan, hayotni sug'urta qilish sohasiga V-klass "Majburiyatlarni ta'minlash uchun hayotni sug'urta", VI-klass "Uzoq muddatli ixtiyoriy pensiya sug'urtasi" hamda VII-klass "Kapitalni qaytarish bilan hayotni sug'urta" klasslari kiritilgan bo'lsa, umumiy sug'urta sohasiga 18-klass "Tibbiy sug'urta" klassi kiritildi.

Butun dunyo miqyosida rivojlanib borayotgan va an'anaviy moliya xizmat turlari bilan raqobatlasha olayotgan Islom moliyaviy xizmatlari mamlakatimiz moliya bozorida ham o'z talab va taklif ko'rsatkichlariga ega bo'lib bordi, jumladan, ushbu yo'nalishdagi takaful – islom sug'urtasiga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Xususan, O'zbekiston sug'urta bozorida birinchi bo'lib "Apex insurance" AJ sug'urta kompaniyasi tomonidan "Takaful oyna" tashkil etilib, islom talablariga mos keladigan sug'urta xizmatlarini taklif etishni yo'lg'a qo'ydi.

O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanib borar ekan, sug'urta sohasidagi onunchilik hujjatlarini ham takomillashtirilib borilmoqda va vakolatli

organ tomonidan bozor qoidalariga ham o'zgartirishlar kiritib borilmoqda. Ushbu amaliy tadbirlar sifatida, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuning kengaytirilgan tarzda, 72 ta moddadan iborat yangi tahrirda qabul qilindi[11]. Ushbu qonun bilan sug'urta sohasida qo'llaniladigan asosiy tushunchalarga ta'rif (tushuncha) berildi, O'zbekiston hududida norezidentlarning sug'urta faoliyatiga alohida modda orqali belgilab berildi, transchegaraviy sug'urta va qayta sug'urta kabi bir qancha tushunchalarga aniqlik kiritildi. Belgilab qo'yildiki, sug'urta kompaniyalari bundan buyon faqat aksionerlik jamiyat shakida tashkil etilishi mumkin. Prezident qarorlari asosida sug'urta bozorida onlaysiz xizmatlar ko'rsatish, sug'urta sohasini raqamlashtirish bilan bog'liq tartib-qoidalar belgilandi. Umuman olganda, sug'urta bozorini tartibga solish va rivojlanirishga qaratilgan asosiy huquqiy ba'zaning deyarli 40%ni 2019-2023-yillar oralig'ida yangilandi.

2019-yil 2-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sug'urta bozorini rivojlanirishga qaratilgan qarori qabul qilinib[12], unda



2-Rasm Umumiy sug'urta tarmog'ida 2022 yilda ko'rsatilgan sug'urta xizmatlarining sug'urta turlari bo'yicha taqsimoti

Manba: Axco global statistic

47 ta bo'limdan iborat yo'l xaritasi belgilandi. Ushbu yo'l xaritasida bir qancha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish va mavjudlarini yangilash ko'zda tutildi. Ushbu qarorga ko'ra, sug'urta tashkilotlari uchun 2020-yil 1-iyuldan va 2022-yil 1-iyuldan boshlab ustav kapitalining eng kam miqdorlari oshirilib, 2022 yil 1-iyuldan boshlab ixtiyoriy sug'urta turlari uchun 20 milliard so'm, majburiy sug'urta turlari uchun 35 milliard so'm va maxsus qayta sug'urta faoliyati uchun 45 mlrd. so'm etib belgilandi.

Ma'lumki, O'zbekistonda valyuta ayirboshlash masalasi 2017-yilga qadar cheklangan tarzda amal qilib, ushbu holat sug'urta kompaniyalarimiz tomonidan olingan sug'urtaviy javobgarliklarini chet el sug'urtalovchilariiga berish masalasida qiyinchilik tug'dirar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qo'shni davlatlar bilan chegaralarini ochishi, butun dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan harakatlar natijasida, shuningdek, 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-soni Farmonia sosidagi valyuta liberalizatsiyasidan so'ng, milliy sug'urta kompaniyalari qayta sug'urta shartnomalarini sotib olish uchun xorijiy valyutani erkin sotib olishlari mumkin bo'ldi. Bu milliy sug'urta tashkilotlarining xalqaro qayta sug'urta bozorlaridan foydalishiga bo'lgan qiziqishining oshishiga olib keldi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda maxsus qayta sug'urta kompaniyasi mavjud emas, biroq, yirik milliy sug'urta kompaniyalari qayta sug'urta qilish faoliyati bilan shug'ullanishi uchun yetarli kapitalga ega bo'lib, ushbu sug'urta tashkilotlari fakultativ qayta sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lg'a qo'yan. "Axco global statistic" kompaniyasining O'zbekiston sug'urta bozori hisobotida yozilishicha, 2018-yilda milliy kompaniyalar qayta sug'urta tashkilotlari bilan xavflarning aksariyati Buyuk Britaniya (58%), Rossiya (9%), Janubiy Koreya (8%), Ozarbayjon (6%), BAA (4%), Xitoy (3%), Germaniyada (2%), Shveytsariya (2%), Fransiya (1%) va boshqa mamlakatlardan (6%) hissasiga to'g'ri keladi[13].

Dunyo miqyosida sug'urta faoliyatining muhim va yirik faoliyat turi hisoblangan, sug'urta kompaniyalari uchun katta hajmdagi javobgarliklarni olish imkonini beruvchi qayta sug'urta sohasida O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining xalqaro maydonadagi ishtiroki ta'minlanmoqda. Mazkur yo'nalishda "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi AJ hamda "Kafolat" sug'urta kompaniyasi AJ etakchilik qilmoqda.

2016-yidan buyon mamlakatimiz iqtisodiyotining ochiq bozor tamoyillari asosida tashkil qilinishi, sog'lom raqobat muhitining

yaratilishi borasida ildam qadamlar tashlandi. Ushbu harakatlar natijasida sug'urta bozoridagi ba'zi sug'urta kompaniyalariga berilgan alohida imtiyozlar keskin kamaytirildi. Masalan, majburiy sug'urta turlari bo'yicha ochiq bozor tashkil qilindi va ushbu tarmoq to'liq raqamlashtirildi. Xususan, 2022-yil avgust oyidan boshlab davlat majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urtalovchilar ochiq tender orqali tanlanishi belgilab qo'yildi. Bu o'z o'mida, barcha sug'urta tashkilotlariga tenderda Qatnashish orqali davlat xizmatchilarining majburiy davlat sug'urtasini amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Sug'urta bozori rivojlanishi fuqarolarning sug'urta savodxoniligining yuqori darajasida shakillanishi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarda sug'urta madaniyatining shakllanishi uchun ko'plab sug'urta turlari avvalo majburiy sug'urta sifatida kiritilib, fuqarolar ushbu sug'urta turlaridan manfatdorligini his qila boshlaganidan so'ng ushbu sug'urta turi ixtiyoriy sug'urtaga aylantiriladi. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ham bir qator ijtimoiy ahamiyatiyu yuqori bo'lgan sug'urta turlari majburiy sug'urta sifatida amal qilmoqda.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida sug'urta bozorida ham bu sohada ulkan ishlar amalga oshirildi. Sug'urta bozordagi sog'lom raqobat muhitining yaratilishi va ochiq bozorni tashkil qilishda shuningdek, korrupsiya holatlarining oldini olish maqsadida qilingan raqamlashtirish ishlari bugungi kunga kelib bir vaqtning o'zida mijozlarga va kompaniyalarga o'zining ijobjiyy natijasini bera boshladи. Raqamlashtirish XXI asrning eng muhim talabi bo'lish bilan birligida, ortiqcha vaqt va mablag'ni tejash imkonini bermoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 23-oktabrdagi PQ-5265-son qarori. Shuningdek, qog'oz ko'rinishida sug'urta polislarni rasmiylashtirish bosqichma-bosqich kamaytirilib, 2024-yil 1-yanvardan butunlay bekor qilinib, onlayin tarzda rasmiylashtirish tartibi belgilandi.

Hayot sug'urtasi tarmog'i so'nngi 7 yil ichida sezilarli darajada o'sib, 2022 yil natijalari bo'yicha jami sug'urta xizmatlaridagi hissasi 25 foizga etdi. Ushbu tarmoqning rivojlanishida, taqdim etilgan soliq imtiyozlar muhim ro'l o'ynadi. Ammo 2023 yilning 1 apreldidan e'tiboran, uzoq

muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha daromad solig'idan berilgan imtiyozning bekor qilinishi hayot sug'urtasi xizmatlarining keskin kamayib ketishiga olib keldi. Ushbu soliq imtiyozi aksariyat sug'urtalanuvchilarga "hayotni sug'urtalash-faqatgina soliqdan qochish uchun" degan tushunchani shakillantira boshlaganligi hamda bu borada noqonuniy holatlarning ko'payganligi ushbu qarorning qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

Xulosha (Conclusion, Заключение).

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalar shakllantrildi.

1. 2017-2023 yillarda oraliq'ida O'zbekiston sug'urta bozori nisbatan tez rivojlandi. Ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarining hajmi 2016 yilga nisbatan 2023 yilda 11,7 baravarga oshdi.

2. Sug'urta xizmatlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi 2017-2023 yillarda oraliq'ida 2,2 baravar ortib, 0,76 % ni tashkil etdi.

3. Sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatilayotgan sug'urta kompaniyalarining soni 2016 yilda 26 tani tashkil etgan bo'lsa 2023 yilda ularning soni 38 tani tashkil etdi.

4. Sug'urta bozorining boshqa professional ishtiropchilari kam sonda bo'lib (sug'urta agentlaridan tashqari), ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar bozorda ko'zga tashlanadigan darajada emas.

5. Hayot sug'urtasining jami bozordagi hissasi 2023 yilda keskin ravishda tushib ketdi. Buning asosiy sababları sifatida, iqtisodiyotda infliyatsiya darajasining yuqoriligi, potentsial sug'urtalanuvchilarda sug'urta sohasiga bo'lgan ishonch ta'minlanmaganligi, 2023 yil 1 apreldan jismoniy shaxslarning uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha daromad solig'ining bekor qilinganligi hisoblanadi.

6. Sug'urta xizmatlarining yalpi ichki mahsulotidagi hissasi ortib borayotgan bo'lsada, rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslanganda sezilarli darajada past.

Umuman olganda, O'zbekiston sug'urta bozori so'nggi yillarda dinamik ravishda rivojlanib bormoqda va yaqin kelajakda iqtisodiyotning etakchi tarmog'iga aylanib, iqtisodiyot barqarorligini ta'minlovchi muhim vosita sifatida amal qiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining Stat.uz sayti ma'lumotlari.
 2. Shennayev X.M. Pandemiya davrida global sug'urta sektori: retsessiya davom etmoqda.// "Moliya va bank ishi" elektron ilmiy jurnali, 4-son. Iyul-avgust. 2020.-98 b.
 3. Daniel S.Glaser. CEO of Marsh & Melennan, how we can set up America's insurance sistem for a future pandemic//. <https://fortune.com/2020/06/04/coronavirus-pandemoc-risk-insurance/>.
 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljalangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni. <https://lex.uz/docs/-/5841063>.
 5. Toshnazarova L. O'zbekiston sug'urta bozorida raqobatni rivojlantrish yo'llari. //Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar, №4 2021 y.
 6. Umirov A.T. O'zbekiston sug'urta bozorida raqobat muhitining xoriy holati va uning tahlili.//Iqtisodiyot va ta'lim, №1 2020 y.
 7. Arobiddin T.Q. "O'zbekistonda sug'urta bozorini isloh qilish va uni jadal rivojlantrishni ta'minlash masalalari". //UzBridge elektron jurnali.№1-son, 2020 y.
 8. Кўлдошев, К. (2023). ЎЗБЕКИСТОН СУФУРТА БОЗОРИ: РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА МУАММОЛАР. Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 1–4. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/55>
 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantrish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5265-son qarori.
 10. "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-iyundagi 323-son qarori.
 11. "O'zbekiston Respublikasining 23.11.2021 yildagi O'RQ-730-sonli «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. <https://lex.uz/acts/40253>.
 12. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagı 4412-sonli "Sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/>
 13. "Global Statistics & Market Data" rasmiy veb sayti: <https://www.axcoininfo.com/>
 14. <https://imda.uz/ru/novosti/>
 15. <https://www.imv.uz/>
 16. <http://i1.md.uz/>
 17. <https://kun.uz/>
 18. <https://napp.uz/>
 19. <https://stat.uz/>
 20. <https://lex.uz/uz/>
 21. <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/index>
- ..